



UMUMIY SHARTNOMA TUZISH SHARTLARI VA MIJOZLAR UCHUN MA'LUMOTLAR

Gyote-Institut e.V., Oskar-von-Miller-Ring 18, 80333 Myunchen, Germaniya („Gyote-Institut“ yoki „Biz“) kurs, imtihonlar hamda boshqa xizmatlar va mahsulot sotib olish uchun

Ko'rsatma: Yaxshiroq o'qilishi uchun tilning jinsga xos shakllaridan bir vaqtning o'zida foydalanish istisno qilinadi. Barcha shaxsni ifodalovchi belgilar barcha jinslarga tegishli.

MUNDARIJA

MUNDARIJA.....	1
1. Amal qilish sohasi.....	3
2. Shartnoma Tuzish	3
a. Bizning veb-sahifamiz orqali shartnoma tuzish	3
b. Bizning veb-sahifamizdan tashqarida shartnoma tuzish.....	3
(1) Faks yoki pochta orqali shartnoma tuzish.....	3
(2) Elektron pochta orqali shartnoma tuzish.....	3
3. SHARTNOMADAGI SHARTLASHISH.....	4
4. Narxlar	4
5. To'lov	4
6. Kurs va imtihonlarda ishtirok etish uchun alohida shartlar	4
a. Kurs guruhlari	4
b. Kurslarda va imtihonlarda qayta yozilish yoki bekor qilish	5
c. To'lash muddati va to'lov	5
d. Xizmatlar ko'lami	6
e. Kurslarda o'smirlar uchun turar joy (Germaniya hududida).....	6
f. Kurs tinglovchilari yoki imtihon ishtirokchilarining majburiyatlari	6
g. Mualliflik huquqi.....	7
h. Bekor qilish	7
(1) Masofaviy kurslar.....	7
(2) Bolalar va yoshlar kurslarida bola xavfsizligiga tahdid	7
(3) Odob-axloq qoidalarini buzish.....	7
i. Favqulodda holatlar va hodisalar yuz berganda o'zgarishlar	8
7. Mahsulotlar xaridi uchun alohida shartlar	8
a. Yetkazib berish shartlari.....	8
b. Egalik huquqi.....	8

c. Yetkazib berishda zarar ko'rish	8
8. RAQAMLI MAHSULOTLAR UCHUN MAXSUS SHARTLAR	8
a. Foydalanish va mualliflik huquqlari	8
b. Mahsulot tavsiflari	8
c. Iste'mol shartnomalarida raqamli tovarlarni o'zgartirish	8
9. Bekor qilish huquqi	9
10. Kafolat	9
11. O'Z KONTENTI UCHUN JAVOBGARLIK	9
12. Mas'uliyatni cheklash VA javobgarlikdan ozod qilish	9
a. Mas'uliyatni cheklash	9
b. Javobgarlikdan ozod qilish	9
13. Nizolarni bartaraf etish	10
Bekor qilish bo'yicha ko'rsatmalar va bekor qilish anketasi	14
a. Kurslar, imtihonlar uchun va boshqa xizmatlar	14
b. Mahsulotlar xaridi uchun	15

1. AMAL QILISH SOHASI

Quyidagi umumiy shartnoma tuzish shartlari („AGB“) Gyote-Instituti hamda Gyote-Institutining pullik takliflariga (kurslar, imtihonlar hamda boshqa xizmatlarga va mahsulotlarga buyurtma berish) goethe.de veb-sahifasi orqali buyurtma berishi mumkin bo'lgan iste'molchilar yoki tadbirkorlar („mijozlar“, „kurs tinglovchilari“, „imtihon qatnashchilari“ yoki „siz“) o'rtasidagi umumiy shartnomaviy munosabatlarni nazarda tutadi. Goethe.de veb-sahifadagi bepul xizmatlardan foydalanish uchun foydalanish [Foydalanishshartlari](#) mavjud. Agar tadbirkor qarama-qarshi yoki qo'shimcha Umumiy shartnoma tuzish shartlaridan foydalansa, unlarining amalda joriy bo'lishi rad etiladi; ular biz to'la rozi bo'lganimizdagina, shartnomaning tarkibiy qismi hisoblanadi.

2. SHARTNOMA TUZISH

a. Bizning veb-sahifamiz orqali shartnoma tuzish

Mahsulotlarimizni (kurslar, imtihonlar va mahsulotlar) veb-sahifamizga joylashtirish orqali biz ushbu tovarlar bo'yicha shartnoma tuzish uchun qat'iy taklif beramiz. Siz ixtiyoriy ravishda bizning mahsulotimizni xaridlar savatiga joylashingiz va ixtiyoriy buyurtmangizni jo'natishdan oldin istalgan vaqtda tahrir qilishingiz mumkin, buning uchun siz buyurtma jarayonida taqdim etilgan va tavsiflangan tahrirlash yordamidan foydalanishingiz mumkin. Siz buyurtma qilish tugmasini bosish orqali xaridlar savatidagi mahsulot haqidagi taklifni qabul qilganingizda, shartnoma tuziladi. Buyurtmani jo'natganingizdan so'ng darhol yana bir bor elektron pochta orqali tasdiqlovchi xabar olasiz.

Germaniya va Avstriyadagi kurslar va imtihonlar uchun

- shartnoma tuzish uchun mavjud bo'lgan tillar: Nemis, ingliz, fransuz, italyan, ispan, portugal (Braziliya), rus, turk, xitoy tili
- boshqa mamlakatlardagi Gyote-Institutlari kurslari va imtihonlari uchun: Nemis tili va mamlakat tili
- o'qituvchilar malakasini oshirish kurslari: Nemis tili

Biz shartnoma matnini saqlaymiz va sizga buyurtma ma'lumotlarini hamda bizning umumiy shartnoma tuzish shartlarini elektron pochta orqali yuboramiz. Xavfsizlik nuqtai nazaridan shartnoma matnini internet orqali olish mumkin emas.

b. Bizning veb-sahifamizdan tashqarida shartnoma tuzish

Bizning kurslarimiz uchun siz anketa to'ldirish orqali ham ro'yxatdan o'tishingiz mumkin. Ro'yxatdan o'tish anketalarini siz hududingizdagi Gyote-Institutidan yoki internetdan olishingiz mumkin. Siz uchun qaysi ro'yxatdan o'tish imkoniyatlari aniq mavjudligi ro'yxatdan o'tish anketasida yoki internetdagi mahsulot tavsifida keltirilgan bo'ladi.

(1) Faks yoki pochta orqali shartnoma tuzish

Agar shunday ro'yxatdan o'tish imkoniyati mavjud bo'lsa, to'ldirilgan anketa faks yoki pochta orqali mazkur anketada ko'rsatilgan oluvchiga yuborilishi mumkin.

Ishtirok haqidagi qarorni hududdagi Gyote-Instituti qabul qiladi. Mavjud kurs va imtihon muddatlari yoki ro'yxatdan o'tish vaqtlari haqidagi ma'lumotlarni siz anketalarda yoki internetdagi mahsulot tavsifida topishingiz mumkin. Faqatgina belgilangan talablarga javob beradigan va vaqtda yetkazilgan anketalar yetarli o'rinlar mavjud bo'lishiga bog'liq holda inobatga olinadi. Odatda buning uchun ro'yxatdan o'tish vaqti hal qiluvch ahamiyatga ega.

Ishtirok haqidagi qaror sizga anketa bizga kelib tushganidan keyin besh kun ichida yozma shaklda ma'lum qilinadi. Kursda yoki imtihonda ishtirok etish huquqi yozma shakldagi tasdiq javobini olgandagina mavjud bo'ladi. Ishtirok uchun ruxsat etilmagan talabgorlar tez vaqtda qaror haqida yozma ravishda xabardor qilinadi.

(2) Elektron pochta orqali shartnoma tuzish

Agar shunday ro'yxatdan o'tish imkoniyati mavjud bo'lsa, to'ldirilgan anketa elektron pochta orqali mazkur anketada ko'rsatilgan ariza qabul qiluvchisiga yuborilishi mumkin.

To'ldirilgan ro'yxatdan o'tish anketasini yuborish bilan siz mahsulot bo'yicha shartnoma tuzish uchun qonuniy kuchga ega taklifni taqdim etasiz. Ishtirok haqidagi qaror sizga anketa bizga kelib tushganidan keyin besh kun ichida yozma shaklda ma'lum qilinadi. Tasdiq javob olingan holatda shartnoma tuziladi. Kursda yoki imtihonda ishtirok etish huquqi yozma shakldagi tasdiq javobini olgandagina mavjud bo'ladi. Ishtirok uchun ruxsat etilmagan talabgorlar tez vaqtda qaror haqida yozma ravishda xabardor qilinadi.

2 b. (1) 2 bandi mos ravishda amal qiladi.

3. SHARTNOMADAGI SHARTLASHISH

Shartnoma quyidagi shartlashish bilan tuziladi,

- barcha kurslarda: buyurtmangizdagi ma'lumotlar veb-sahifada keltirilgan dastlabki qabul qilish shartlariga mos kelishi kerak va siz kurs boshlanayotgan vaqtda mahsulot tavsifida keltirilgan eng kam yoshga to'lgan bo'lishingiz lozim.
- o' qituvchilar malakasini oshirish kurslari uchun: veb-saytda ko' rsatilgan qabul talablariga (xususan, talab qilinadigan o' qituvchilik tajribasi) rioya qilinishi lozim.
- guruh kurslari hamda guruh imtihonlarida: tegishli mahsulot tavsifida keltirilgan eng kam ishtirokchilar soniga erishilishi lozim.
- mahsulot tavsifida talab qilinishi mumkin bo' lgan (onlayn) darajani aniqlash testi uchun (bundan keyin: "Darajani aniqlash testi") o' z vaqtida yakunlanishi lozim.
- imtihonlarda: ishtirokchi Gyote-Institutining tegishli [imtihon tartibining](#) 3-paragrafida ko'rsatilgan ishtirok etish talablarini bajaradi.
- bolalar va yoshlar kurslari uchun: ro'yxatga olinish faqat shartnomadagi sherik sifatida e'tirof etiladigan qonuniy vakil (yoki vakillar) orqali amalga oshiriladi hamda barcha talab qilingan tushuntirishlar va/yoki roziliklar muvaffaqiyatli ro'yxatga o'tishdan so'ng Gyote-Institutiga yozma shaklda (masalan elektron pochta yoki faks orqali) taqdim etilishi lozim.

Agar biror bir shartnoma shartlariga muvofiq shartnoma tuzilmasa, kurs yoki imtihon uchun to'lov qaytarib beriladi.

4. NARXLAR

Kurslar va imtihonlar uchun ro'yxatdan o'tish vaqtida veb-sahifada keltirilgan narxlar amal qiladi.

Mahsulotlarning belgilangan narxlaridan tashqari yana jo'natish xarajatlari ham qo'shilishi mumkin. Jo'natish narxlari haqidagi aniqroq ma'lumotni siz mahsulotlarda topasiz.

5. TO'LOV

To'lov veb-sahifada eng kechi bilan buyurtma jarayoni boshlanishida keltirilgan to'lov turlarida amalga oshiriladi. To'lov vositasini tanlash har bir buyurtmada amal qiladi. Aniq bir to'lov vositasidan foydalanish talabi mavjud emas.

6. KURS VA IMTIHONLARDA ISHTIROK ETISH UCHUN ALOHIDA SHARTLAR

a. Kurs guruhlari

Har bir guruh uchun tegishli mahsulot tavsifida keltirilgan tinglovchilarning minimal soni amal qiladi. Biror bir kurs darajasiga va kurs guruhiga yo'naltirish mahsulot tavsifida talab etiladigan bo'lsa darajalash testi asosida amalga oshiriladi. Sifatni ta'minlash maqsadida, odatda, yangi mijozlardan til kurslari uchun darajani aniqlash testi talab qilinadi. Darajani aniqlash testini o' z vaqtida topshirmaslik, qabul qilinmaslikka olib kelishi mumkin. Darajalash testi aniq, tegishli mahsulot tavsifida belgilangan muddatda amalga oshirilishi kerak. Kerakli darajani

aniqlash testlari va ularning tartibi haqida qo‘ shimcha ma'lumotni tegishli mahsulot tavsifida topishingiz mumkin.

Shartnoma minimal tinglovchilar soniga erishish hamda talab etilgan holda darajalash testini o‘z vaqtida tugashini nazarda tutadi, 3-band 2-betga qarang.

b. *Kurslarda va imtihonlarda qayta yozilish yoki bekor qilish*

Sizning [bekor qilish huquqingizga](#) dahl qilmagan holda quyidagilar qo‘llaniladi:

Kurslarga qayta yozilish (masalan: kurs muddatini o‘zgartirish) faqat istisno holatlarda va Gyote-Institutining roziligi bilan mumkin bo‘ladi. Har bir qayta yozilish uchun, agar boshqa kelishuv mavjud bo‘lmasa, quyidagi miqdorda xarajatlar badali to‘lanadi:

Qayta yozilish uchun badal to‘lovi

<i>Germaniya va Avstriya dan tashqari kurslar</i>	Kurs to‘lovining 5%
<i>Germaniya va Avstriyadagi kurslar</i>	qayta yozilish uchun badal to‘lovi €60; sinflarda o‘tkaziladigan kurslar uchun istisno: ishtirokchi tegishli dalil taqdim etgan taqdirda, salbiy viza bildirishnomasi tufayli birinchi qayta yozilish.

Imtihonga qayta yozilish, agar boshqa kelishuv mavjud bo‘lmasa, faqat istisno holatlarda va Gyote-Institutining roziligi bilan mumkin bo‘ladi.

Kurs yoki imtihon ishtirokchisi buyurtmani quyidagi shartlar asosida yozma ravishda (yozma ravishda, faks yoki elektron pochta orqali) bekor qilishi mumkin:

Bekor qilish uchun badal to‘lovi

Bekor qilish...	<i>Germaniya va Avstriyadan tashqari kurslar</i>	<i>Germaniya va Avstriyadagi kurslar</i>	<i>Imtihonlar</i>
boshlanishdan 4 hafta oldin	Kurs to‘lovining 10 %	160 €	Imtihon to‘lovining 100%
boshlanishdan 1 hafta oldin	Kurs to‘lovining 20 %	Kurs to‘lovining 30%, kamida 160 €	Imtihon to‘lovining 100%
boshlanishdan 1 kun oldin	Kurs to‘lovining 30 %	Kurs to‘lovining 50%, kamida 160 €	Imtihon to‘lovining 100%
boshlangandan keyin	Kurs to‘lovining 100 %	Kurs to‘lovining 100%	Imtihon to‘lovining 100%

Muddat saqlanganligini aniqlashtirish uchun bekor qilish haqidagi arizaning Gyote-Institutga kelib tushishi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Turar joy uchun qilingan har qanday buyurtmani kurs tinglovchisi kurs boshlanishidan 4 hafta oldin bepul bekor qilishi mumkin. Kechroq bekor qilish mumkin emas. Ijara haqi – turar joydan to‘liq foydalanilmagan holatda ham, buyurtma qilingan ijara muddati uchun boshqa ijarachi topishga muvaffaq bo‘lmasak, - to‘liq to‘lanadi.

Kurs tinglovchilari yoki imtihon ishtirokchilari uchun barcha qayta yozilish yoki bekor qilish holatlarida bizga umuman yoki kamroq zarar yetkazgani haqida asos keltirishlari mumkin.

Har qanday majburiy xususiyatga ega bo‘lgan milliy qonuniy nizomlar ushbu band uchun dahlsizdir.

c. *To‘lash muddati va to‘lov*

Har bir to‘lov (**kurs- va/yoki imtihon uchun to‘lov**) to‘lov varaqasida belgilangan muddatda to‘liq to‘lanishi lozim. Bu Blended Learning (aralash shakldagi ta‘lim tizimi) deb ataladigan

mahsulotlarga ham tegishli. Blended Learning mahsulotlari - bu mahsulot tavsifiga ko'ra, sinfda o'tiladigan (kurslar) va raqamli o'rganish fazalaridan iborat mahsulotlardir. Blended Learning mahsulotlari mahsulot tavsifida shunday ko'rsatilgan.

Tegishli **masofaviy kurslar** kurs to'lovi har bir uch (3) oy muddatga bo'lib-bo'lib to'lanadi. Birinchi to'lov hisob-fakturani olgandan keyin ikki hafta o'tgach to'lanadi. Keyingi barcha to'lovlar kurs oylari soniga qarab 4, 7, 10, 13, 16, 19 va 22-oyning birinchi kunlarida to'lanadi. Hisob-fakturada ko'rsatilgan Gyote-Instituti hisobiga kirish to'lovni o'z vaqtida amalga oshirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Kurs ishtirokchisi hisob-fakturani olgandan keyin kursning to'liq narxini bitta to'lov bilan to'lash huquqiga ega.

Har qanday kurs to'lovini to'lash bilan bog'liq kurs tinglovchisi kredit muassasasi tomonidan hisoblangan to'lovlar kurs tinglovchisi tomonidan qoplanadi. Gyote-Instituti alohida tranzaksion to'lovlarni olmaydi.

Agar to'lovlar kelishilgan muddatda to'lanmagan bo'lsa, kurs yoki imtihon boshlanishi yoki davom ettirilishi mumkin emas. Bunday holatda Gyote-Instituti kurslarda joyni boshqa talabgorlarga berib yuborish huquqiga ega.

d. Xizmatlar ko'lami

Kurs to'lovlari kurs turiga qarab kurs ishtiroki, topshiriq va testlarni tahrirlash va sharhlash, fan bo'yicha qo'llab quvvatlash, shuningdek, ishtirok haqidagi tasdiqlovchi hujjatni taqdim etishni o'z ichiga oladi.

Imtihon to'lovlari sertifikat taqdim etishni o'z ichiga oladi.

Qo'shimcha ma'lumotlarni (shu jumladan har qanday kurs materiallari haqida ma'lumotlarni) tegishli mahsulot tavsiflarida topish mumkin.

e. Kurslarda o'smirlar uchun turar joy (Germaniya hududida)

So'rov bo'yicha va agar mavjud bo'lsa, Gyote-Instituti buyurtma qilingan kurs davomida alohida joylarda jihozlangan turar joyni ijaraga beradi yoki boshqa uy egalaridan turar joy tashkil qiladi. Turar joy turi taklifda tasvirlangan bo'ladi, oldindan ko'rish mumkin emas.

Turar joylar faqat kurs davomida vaqtincha foydalanish uchun ijaraga beriladi. Turar joyga ko'chib kirish kuni e'lon qilingan kelish kuni, ko'chib chiqish kuni e'lon qilingan jo'nab ketish kuni hisoblanadi. Ijara shartnomasini bekor qilish talab qilinmaydi, u jo'nab ketish kuni tugaydi. Agar ijarachi ijara muddati tugaganidan keyin ijaraga olingan mulkdan foydalanishni davom ettirsa, ijara muddati uzaytirilmaydi. Kurs tinglovchisi mehmonlarining tunab qolishi uchun ijarachining kurs ishtirokchisi qonuniy manfaatlarini nazarda tutgan batafsil roziligi talab qilinadi.

Kurs tinglovchilariga ijaraga olingan xonalardan uy tartiblariga muvofiq turar joy maqsadlarida foydalanishiga ruxsat etiladi. Ijaraga olingan xonalarda o'zgarishlarga ruxsat etilmaydi. Kurs tinglovchisi ijaraga olingan xonalarni tartibli tozalash, shamollatish va isitish hamda ijaraga olingan jihozlar va inshootlarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni o'z zimmasiga oladi. Kurs tinglovchisi Gyote-Institutga ijaraga olingan xonalar, bino yoki bino yoki yer uchastkasiga tegishli inshootlar va jihozlarga yetkazilgan zarar to'g'risida darhol xabar berishi va agar u g'amxo'rlik qilishdagi e'tiborsizligi yoki boshqa yo'l bilan zarar yetkazganligi uchun javobgar bo'lsa, zararni o'z mablag'lari hisobidan to'lashi kerak.

Ijara muddati tugagandan so'ng yoki ko'chib ketishdan oldin kurs tinglovchisi ijaraga olingan xonalarni ozoda holatda va barcha kalitlari bilan birgalikda topshirishi kerak.

f. Kurs tinglovchilari yoki imtihon ishtirokchilarining majburiyatlari

Sinflarda o'tkaziladigan kurs tinglovchisi

- o'z mablag'lari hisobidan uning kurs manzilida bo'lishi qonun doirasida bo'lishini va u talab qilingan mamlakatga kirish va yashash ruxsatnomasi/vizaga ega bo'lishni ta'minlashi kerak.
- tibbiy, baxtsiz hodisalardan, javobgarlik hamda mol-mulk sug'urtalariga ega bo'lish uchun javobgardir.
- institutlarda amal qiladigan kurs va yashash qoidalariga rioya qilishga majbur.

Masofaviy kurs tinglovchisi

- kursda ishtirok etish uchun zarur bo'lgan hamda taklifda bayon etilgan minimal texnik talablarni bajarish uchun o'zi mas'uldir.
- Gyote-Institut tomonidan unga ta'lim va/yoki imtihon platformalari uchun taqdim etilgan kirish ma'lumotlarini oshkor qilishi yoki uchinchi shaxsga berishi mumkin emas.
- boshqa hollarda foydalanuvchining majburiyatlarini bajarishi kerak (Foydalanish shartlarining 4-bo'limi).

Imtihon ishtirokchisining majburiyatlari imtihon reglamentining amaldagi versiyasiga muvofiq belgilanadi.

g. Mualliflik huquqi

Barcha kurs va imtihon materiallari (matnlar, mashqlar, test savollari, javoblar, rasmlar, dastur kodlari, videolar hamda boshqa tarkibiy qismlar) mualliflik huquqi bilan himoyalangan. Kurs tinglovchilariga kursdagi ishtiroki doirasida shaxsiy qo'llash uchun oddiy va boshqalarga o'tkazib bo'lmaydigan foydalanish huquqi beriladi.

Kurs yoki imtihon ishtirokchilariga kurs yoki imtihon materiallarini - ko'chirma shaklida ham – uchinchi shaxs uchun nusxalash, ularni ommaga taqdim etish yoki boshqalarga yuborish, pullik yoki bepul ravishda internet tarmog'iga joylashtirish, ularni sotish yoki tijorat maqsadlarida foydalanish taqiqlanadi. Mualliflik huquqiga oid bildirishnomalar, belgilar yoki savdo belgilari olib tashlanishi mumkin emas. Mualliflik huquqining buzilishi qonunchilikka muvofiq javobgarlikka tortilishi mumkin.

h. Bekor qilish

(1) Masofaviy kurslar

Tanlangan kursning mahsulot tavsifida ko'rsatilgan davomiyligi amal qiladi.

Sizning [bekor qilish huquqingizga](#) da'hl qilmagan holda quyidagilar qo'llaniladi:

Siz shartnomani tuzilganidan keyin birinchi yarim yillik tugashiga qadar olti haftalik ogohlantirish muddati bilan, birinchi yarim yillikdan so'ng istalgan vaqtda 3 oylik ogohlantirish muddati bilan sabablarni taqdim etmagan holda bekor qilishigiz mumkin. Gyote-Instituti va kurs tinglovchisining muhim sababga ko'ra shartnomani bekor qilish huquqi dahlsizdir.

Bu (onlayn) mustaqil ta'lim kurslariga ham tegishli.

(2) Bolalar va yoshlar kurslarida bola xavfsizligiga tahdid

Agar Gyote-Instituti taqdim eta olmaydigan individual parvarish orqali bartafaf etilishi mumkin bo'lgan bolaning yoki yosh tinglovchining salomatligi uchun to'g'ridan-to'g'ri xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan asoslar mavjud bo'lsa, Gyote-Instituti kursni ogohlantirish muddatiga amal qilmasdan muddatidan oldin bekor qilish uchun haqlidir.

Agar bu holat Gyote-Instituti tomonidan qasddan yoki mas'uliyatning qo'pol ravishda buzishi oqibatida sodir bo'lmagan bo'lsa, Gyote-Instituti kursni tugatish natijasida yetkazilgan zarar uchun javobgar bo'lmaydi. 10-banddagi qoidalar dahlsiz qoladi.

(3) Odob-axloq qoidalarini buzish

Tinglovchi tomonidan jiddiy g'ayriqonuniy harakatlar sodir etilgan taqdirda, Gyote-Instituti kursni muddatidan oldin ogohlantirish muddatiga amal qilmagan holda tugatish huquqiga ega. Ayniqsa, bezorilik, giyohvand moddalarni iste'mol qilish, boshqa tinglovchilarga nisbatan tajovuzkor xatti-harakatlar va jinsiy zo'ravonlik holatlari jiddiy qonunbuzarliklar sifatida qabul qilinadi.

Yuqoridagi 6-bandda (h) keltirilgan bekor qilish matn shaklda bo'lishi talab etiladi.

Har qanday majburiy xarakterga ega bo'lgan milliy qonuniy nizomlar ushbu band uchun dahlsizdir.

i. Favqulodda holatlar va hodisalar yuz berganda o'zgarishlar

Gyote-Instituti nazorati ostida bo'lmagan jiddiy va favqulodda holatlar yoki hodisalar yohud mavjud bo'lgan holat va voqealarning o'zgarishi (m. u. tartibsizlik, qurolli to'qnashuv yoki terroristik to'qnashuvlar, tabiiy ofatlar, epidemiyalar, pandemiyalar v.b.) sodir bo'lsa, biz sizga kursni o'zgartirishni taklif qilish huquqini saqlab qolamiz (m.u. vaqti yoki joyi nuqtai nazaridan). Bunday vaziyatda biz yangi taklifni belgilangan muddatda taqdim etamiz va sizdan o'zgargan taklifni qabul qilishingiz yoki shartnomani bekor qilishingiz haqida ma'lumot berishingizni so'raymiz. Agar siz shartnomani bekor qilsangiz, biz sizga har qanday to'lovni (mumkin qadar, xizmat ko'rsatish holatiga mos ravishda) qaytarib beramiz.

Iste'molchilar uchun quyidagilar amal qiladi: 8 (c) bandining qoidalari raqamli mahsulotlarga kiritilgan o'zgarishlarga nisbatan qo'llaniladi.

7. MAHSULOTLAR XARIDI UCHUN ALOHIDA SHARTLAR

a. Yetkazib berish shartlari

Biz mahsulotlarni pochta orqali yetkazib beramiz. Mahsulotni shaxsan olib ketish imkoni mavjud emas.

b. Egalik huquqi

Mahsulot uchun to'lov to'liq amalga oshirilgunga qadar mahsulot bizning mulkimiz hisoblanadi.

c. Yetkazib berishda zarar ko'rish

Agar mahsulotlar yaqqol ko'rinib turgan yetkazib berish zararlari bilan olib borilsa, iltimos, bunday xatolar haqida yetkazib beruvchiga iloji boricha tezroq ma'lum qiling va darhol biz bilan bog'laning. Shikoyat qilmaslik yoki biz bilan bog'lanmaslik sizning qonuniy talablaringiz hamda ularning bajarilishi, shuningdek, kafolat huquqlaringiz ta'minlanishi uchun hech qanday salbiy oqibatlariga olib kelmaydi. Lekin siz bu bilan bizga tashuvchiga yoki transport sug'urtasiga nisbatan talablarimizni tasdiqlashda yordam berishingiz mumkin.

8. RAQAMLI MAHSULOTLAR UCHUN MAXSUS SHARTLAR

Gyote-Instituti mahsulotlari raqamli mahsulotlar ko'rinishida taklif qilinishi sababli, quyidagi qoidalar ham amal qiladi.

a. Foydalanish va mualliflik huquqlari

Raqamli mahsulotlarga nisbatan foydalanish huquqlari tegishli shartnoma muddati bilan cheklanadi. Yuqoridagi foydalanish huquqlari biz joriy xizmatlarimiz o'rniga taqdim etadigan raqamli mahsulotlarimizning (yangilanishlar va modernizatsiya) keyingi versiyalariga ham tegishli. Aks holda, tegishli tarzda 6.g ostidagi qoidalar qo'llanadi.

b. Mahsulot tavsiflari

Qo'shimcha ma'lumotlarni tegishli mahsulot tavsifida ham topish mumkin.

c. Iste'mol shartnomalarida raqamli tovarlarni o'zgartirish

Iste'molchilar uchun quyidagilar amal qiladi: Doimiy ta'minot mavjud bo'lganda, biz raqamli mahsulotga shartnomaga rioya qilishni ta'minlash uchun zarur bo'lganidan tashqari o'zgartirishlar kiritishimiz mumkin, agar

- buning uchun asosli sabab bo'lsa,
- o'zgartirish natijasida siz hech qanday qo'shimcha xarajatlarga duch kelmasangiz va
- biz sizga o'zgarishlar haqida aniq va tushunarli qilib xabar beramiz.

Mazkur holatda asosli sabablarga raqamli mahsulotni yangi texnik muhitga yoki ko'paygan foydalanuvchilar soniga moslashtirish uchun o'zgartirish zarur bo'lgan yoki boshqa muhim operatsion sabablarga ko'ra zarur bo'lgan holatlar kiradi.

9. BEKOR QILISH HUQUQI

Iste'molchilar [bekorqilishto'grisidaqihujjatlarda](#) ko'rsatilgan mahsulotni bekor qilish qonuniy huquqiga ega. Tadbirkorlarga bekor qilishning ixtiyoriy huquqi berilmaydi.

10. KAFOLAT

Kamchiliklar uchun javobgarlikning qonuniy huquqi amal qiladi.

11. O'Z KONTENTI UCHUN JAVOBGARLIK

Agar siz Gyote-Instituti xizmatlaridan foydalanganda o'z kontentingizni taqdim qilsangiz va/yoki uni hamma uchun ochiq qilib qo'ysangiz, buning uchun faqat siz javobgarsiz. Siz bunday kontentga oid barcha huquqlarga ega ekanligingizga kafolat berasiz va taqdim etilgan kontent uchinchi tomon huquqlarini, xususan, savdo belgilarini, mualliflik huquqlarini yoki qo'shimcha mualliflik huquqlarini, boshqa intellektual mulk huquqlarini, mulkiy huquqlarni yoki shaxsiy huquqlarni buzmasligiga kafolat berasiz.

Bundan tashqari, taqdim etilgan kontent hech qanday huquqiy me'yorlarni buzmasligi, xususan, irqchilik, ksenofobiya, zo'rvonlikni ulug'lash, jinsiy aloqa yoki boshqa axloqsizlik yoki konstitutsiyaga zid bo'lmamasligi yoki bunday maqsadlarni ko'zlamasligi kerak.

12. MAS'ULIYATNI CHEKLASH VA JAVOBGARLIKDAN OZOD QILISH

a. Mas'uliyatni cheklash

Biz o'zimizning qonuniy vakillarimiz hamda ishonchli hamkorlarimiz tomonidan yetkazilgan zarar tufayli yuzaga kelgan da'volar uchun har doim

- hayot, tana yoki sog'liqqa zarar yetganda
- majburiyatlar qasddan yoki beparvolik bilan buzilganda
- kelishilgan kafolat majburiyatida
- iste'molchilarga nisbatan cheksiz javobgarmiz.

Birinchi navbatda shartnomaning to'g'ri bajarilishini ta'minlaydigan shartnomaning asosiy burchlarining buzilishi hamda shartnoma sherigining doimiy ravishda uning muvofiqligiga ishonishi mumkinligi (asosiy shartnoma majburiyatlari) bizning qonuniy vakillarimiz yoki ishonchli hamkorlarimizning ozgina e'tiborsizligi orqali yuz bersa, tadbirkor oldidagi javobgarlik shartnoma tuzish paytida nazarda tutilgan va odatda yuzaga kelishi inobatga olinishi kerak bo'lgan zarar miqdori bilan cheklanadi.

Boshqa holatlarda zararni qoplash haqidagi da'volar chiqarib tashlanadi.

b. Javobgarlikdan ozod qilish

Siz bizni

- kurslar va/yoki imtihonlarda qatnashish, shu jumladan AGB 8-bo'limiga muvofiq raqamli mahsulotlardan foydalanish
- AGB 11-bo'limiga muvofiq o'z kontentini taqdim etishga

doir qonun yoki majburiyatlarning buzilishi bilan bog'liq bo'lgan hollarda, agar siz majburiyatlarni buzganingiz uchun javobgar bo'lmasangiz, uchinchi shaxslar tomonidan bizga qo'yilgan har qanday da'volardan ozod qilasiz. Siz bizga kerakli huquqiy himoya xarajatlarini, jumladan, barcha sud xarajatlarini va dalil uchun advokat to'lovlarini qoplashingiz kerak. Zararni qoplash bo'yicha boshqa har qanday da'volar o'zgartmaydi.

Xuddi shu narsa bolangiz tomonidan qonun yoki majburiyatni buzish sodir etilganda, bolalar va o'smirlar kurslariga ham tegishli.

13. NIZOLARNI BARTARAF ETISH

Yevropa Komissiyasi nizolarni onlayn tarzda bartaraf etish platformasini (OS) taqdim etadi va siz uni bu mazkur ilova oraqli <http://ec.europa.eu/consumers/odr/> topishingiz mumkin. Iste'molchilar nizolarini bartaraf etish uchun ushbu platformadan foydalanish imkoniyatiga egadirlar.

Biz iste'molchilar Hakamlik Kengashi oldida suddan tashqari hakamlik jarayonida ishtirok etishga tayyormiz. Bunga Arbitraj markazidagi federal universal arbitraj kengashi javobgardir, Straßburg ko'chasi 8, 77694 Kehl am Rhein, Germaniya, www.verbraucher-schlichter.de.

BEKOR QILISH BO'YICHA KO'RSATMALAR VA BEKOR QILISH ANKETASI

Iste'molchilar uchun quyidagilar amal qiladi:

a. Kurslar, imtihonlar uchun va boshqa xizmatlar

Bekor qilish huquqi

Sizning o'n to'rt kun ichida hech qanday sabab taqdim etmasdan mazkur shartnomani bekor huquqingiz bor. Bekor qilish muddati shartnoma tuzilganidan keyingi o'n to'rt kunni tashkil etadi.

Bekor qilish huquqingizdan foydalanish uchun, siz bizga (Gyote-Instituti e.V., mijozlar bilan ishlash bo'limiga, Oskar-von-Miller-Ring ko'chasi 18, 80333 Myunxen, Germaniya yoki widerruf@goethe.de elektron pochta manziliga yohud +49 89 15921-0 tel. raqamiga) aniq bayonot vositasida (m.u. pochta orqali jo'natilgan xat yoki elektron pochta orqali jo'natilgan xat) shartnomani bekor qilish qaroringiz haqida ma'lum qilishingiz kerak. Buning uchun siz ilova qilingan anketa namunasidan foydalanishingiz mumkin, lekin bu majburiy emas.

Bekor qilish muddatidan foydalanish uchun bekor qilish muddati tugamasdan bekor qilish huquqidan foydalanish haqidagi bildirishnomani yuborish yetarli hisoblanadi.

Bekor qilish oqibatlari

Agar siz mazkur shartnomani bekor qilsangiz, biz sizdan olgan barcha to'lovlarini, shu jumladan yetkazib berish xarajatlarini eng qisqa vaqtda va eng kechi bilan ushbu shartnomani bekor qilganingiz to'lovlarida xabar olgan kundan boshlab yetti kun ichida to'lab berishimiz lozim. Ushbu to'lovni amalga oshirish uchun biz, agar siz bilan aniq bir boshqa kelishuv mavjud bo'lmasa, siz avval to'lov operatsiyasi uchun foydalangan to'lov vositasidan foydalanamiz; hech qanday holatda sizga ushbu to'lov sababli foiz summasi hisoblanmaydi.

Bekor qilish uchun anketa namunasi

(Agar siz shartnomani bekor qilmoqchi bo'lsangiz, unda ushbu anketani to'ldiring va jo'nating.)

– Gyote-Instituti e.V., mijozlar bilan ishlash bo'limiga, Oskar-von-Miller-Ring ko'chasi 18, 80333 Myunxen, Germaniya manziliga yoki widerruf@goethe.de elektron pochta manziliga yoki +49 89 15921--0 tel raqamiga

– Bu orqali men/biz (*) men tomonimdan/biz tomonimizdan (*) quyidagi mahsulotni xarid qilish (*)/ quyidagi xizmat ko'rsatish turini amalga oshirish(*) uchun tuzilgan shartnomani bekor qilaman/ bekor qilamiz

– Buyurtma vaqti (*)/olingan vaqti (*)

– Iste'molchining ismi

– Iste'molchining manzili

– Iste'molchi imzosi (qog'oz variantda xabar qilinganda)

– Sana

() Mos kelmagan joylar o'chirilsin*

b. Mahsulotlar xaridi uchun

Bekor qilish huquqi

Sizning o'n to'rt kun ichida hech qanday sabab taqdim etmasdan mazkur shartnomani bekor huquqingiz bor. Bekor qilish muddati siz yoki siz tomoningizdan tayinlangan, eltib beruvchi hisoblanmagan uchinchi shaxs tomonidan mahsulotga egalik qilingan kundan boshlab o'n to'rt kunni tashkil etadi.

Bekor qilish huquqingizdan foydalanish uchun, siz bizga (Gyote-Institut e.V., mijozlar bilan ishlash bo'limiga, Oskar-von-Miller-Ring ko'chasi 18, 80333 Myunxen, Germaniya yoki widerruf@goethe.de elektron pochta manziliga yohud +49 89 15921-0 tel raqamiga) aniq bayonot vositasida (m.u. pochta orqali jo'natilgan xat yoki elektron pochta orqali jo'natilgan xat) shartnomani bekor qilish qaroringiz haqida ma'lum qilishingiz kerak. Buning uchun siz ilova qilingan anketa namunasidan foydalanishingiz mumkin, lekin bu majburiy emas.

Bekor qilish muddatidan foydalanish uchun bekor qilish muddati tugamasdan bekor qilish huquqidan foydalanish haqidagi bildirishnomani yuborish yetarli hisoblanadi.

Bekor qilish oqibatlari

Agar siz mazkur shartnomani bekor qilsangiz, biz sizdan olgan barcha to'lovlarini, shu jumladan yetkazib berish xarajatlarini eng qisqa vaqtda va eng kechi bilan ushbu shartnomani bekor qilganingiz to'lovlarida xabar olgan kundan boshlab yetti kun ichida to'lab berishimiz lozim. Ushbu to'lovni amalga oshirish uchun biz, agar siz bilan aniq bir boshqa kelishuv mavjud bo'lmasa, siz avval to'lov operatsiyasi uchun foydalangan to'lov vositasidan foydalanamiz; hech qanday holatda sizga ushbu to'lov sababli foiz summasi hisoblanmaydi. Biz, vaziyatga qarab, qaysi biri tezroq amalga oshirishini inobatga olib, mahsulotlarni qaytarib olmaguncha yoki siz mahsulotni jo'natganingiz haqidagi asosni taqdim etguningizga qadar to'lovni rad etamiz.

Mahsulotlarni bizga yoki Niedermaier Spedition GmbH ga qaytarishingiz yoki topshirishingiz kerak. Kompaniya manzili: Fuhrmann ko'chasi 10-uy, 94405 Landau an der Isar shahri, Germaniya. Agar mahsulotga zarar mahsulotning sifatini, xususiyatlarini va funktsionalligini tekshirish bilan bog'liq bo'lmagan holatda yetkazilgan bo'lsagina, siz tovarga yetkazilgan har qanday zararni to'lab berasiz.

Bekor qilish uchun anketa namunasi

(Agar siz shartnomani bekor qilmoqchi bo'lsangiz, unda ushbu anketani to'ldiring va jo'nating.)

– Gyote-Institut e.V., mijozlar bilan ishlash bo'limiga, Oskar-von-Miller-Ring ko'chasi 18, 80333 Myunxen, Germaniya manziliga yoki widerruf@goethe.de elektron pochta manziliga yoki +49 89 15921--0 tel raqamiga

– Bu orqali men/biz (*) men tomonimdan/biz tomonimizdan (*) quyidagi mahsulotni xarid qilish (*)/ quyidagi xizmat ko'rsatish turini amalga oshirish(*) uchun tuzilgan shartnomani bekor qilaman/ bekor qilamiz

– Buyurtma vaqti (*)/olingan vaqti (*)

– Iste'molchining ismi

– Iste'molchining manzili

– Iste'molchi imzosi (qog'oz variantda xabar qilinganda)

– Sana

() Mos kelmagan joylar o'chirilsin*